







Olimpiya o'yinlari g'olibi bo'lgan surxondaryolik sportchilar sharafiga tantanati tadbir tashkil etildi



Termiz shahridagi Yakka kurash turlari maktabida Parij-2024 yozgi Olimpiya o'yinlari chempioni va sovrindori Bahodir Jalolov hamda Muzaffarbek To'raboyevlarni tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.



Davlat va jamoat tashkilotlari mutasaddilari, yoshlar, sportchilar, vohalik sport muxlislari ishtirok etgan tadbirda Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov chempionlikni qo'lga kiritgan bokschimiz Bahodir Jalolov va bronza medali sohibi, kurashchimiz Muzaffarbek To'raboyevga zarbop to'n kiydirib, voha ahli nomidan sportchilarimizni erishgan g'alabalari bilan tabrikladi.





Sportchilarimiz, ularning ota-onalari va yaqinlari soʻzga chiqib, Prezidentimizning sportga qaratayotgan eʼtibori, Vatanimiz shuhratini nufuzli musobaqalarda keng tarannum etish uchun sportchilarga yaratayotgan sharoitlar uchun oʻz minnatdorchiliklarini bildirdi.

Tartanali tadbir ishtirokchilari vohaning mard oʻgʻlonlari bilan esdalik uchun suratlarga tushdi va gullar tuhfa qilishdi.

